MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH DASTURLARINING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH 9
Erejepov Kuwanishbay Jiyenbay ulı
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGINING 2026-2028-YILLARGA MO‘LJALLANGAN BYUDJET DASTURLARINI SHAKLLANTIRISH VA MAQSADLI INDIKATORLARINI BELGILASH YONDASHUVLARI 15
Sayfutdinov Sherxon Safarbayevich
GAZBETON BLOKLARIDA DARZ KETISH VA YORILISHNI MIKROTOLALAR (FIBRA) QO‘SHISH ORQALI KAMAYTIRISH 22
Immatov Zarif, Jamolova Mohigul
JISMONIY SHAXSLARNING FOND BOZORIDAGI INVESTITSIYAVIY FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 30
Yuldasheva Madinaxon Mamasadikovna
ОТ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА К СУБЪЕКТНОСТИ РАБОТНИКА В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 36
Атажанов Азизбек Абдималикович
INTERNATIONAL TECHNICAL ASSISTANCE, DIGITALIZATION, AND HUMAN CAPITAL IN THE MODERNIZATION OF UZBEKISTAN’S NATIONAL QUALITY INFRASTRUCTURE 42
Orifboev Abdullakhon Asadullo ugli
HAVO ELEKTR UZATISH LINIYALARINING TEXNIK HOLATINI MONITORING QILISH VA RAQAMLI EGIZAGINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI 48
Aripova M.X., Ibragimova B.B.
O‘ZBEKISTON FOND BOZORI RIVOJINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA’SIRI: 2016–2025-YILLAR MA’LUMOTLARI ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH 54
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna
YIRIK TADBIRLAR DAVRIDA MEHMONXONA VA TURISTIK XIZMATLAR O‘SISHINING HUDUDLARARO TAHLILI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA «FARQLAR FARQI» YONDASHUVI 63
Ibragimov Sardorbek
CHEGARA BOJXONA POSTLARIDA JISMONIY SHAXSLAR YUKLARINI SKANERLASHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASI 72
Ergashev Qobiljon Ernazarovich
DAVLAT XARIDLARIDA NARX SHAKLLANISHINING SHAFFOFLIGINI TA’MINLASH VA VOSITACHILIK ZANJIRLARI ORQALI NARX OSHIRISH XAVFLARINI KAMAYTIRISH 78
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug‘aniyev

DAVLAT XARIDLARIDA NARX SHAKLLANISHINING SHAFFOFLIGINI TA’MINLASH VA VOSITACHILIK ZANJIRLARI ORQALI NARX OSHIRISH XAVFLARINI KAMAYTIRISH

Dilshod Pulatov
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va
fiskal tahlillar instituti direktorining birinchi o‘rinbosari, i.f.d., professor

Uchqun Abdug‘aniyev
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va fiskal tahlillar instituti bo‘lim boshlig‘i, PhD, dotsent

Annotatsiya. Davlat xaridlarida boshlang‘ich narxni shakllantirish, vositachilik zanjirlari, o‘zaro bog‘liq ishtirokchilar va shartnomalar ijrosi bilan bog‘liq narx xavflari tahlil qilinadi. O‘zbekistonning amaldagi normativ-huquqiy bazasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va AQSHning davlat xaridlari sohasidagi yondashuvlari bilan qiyosiy o‘rganiladi. Narx shakllanishining shaffofligini oshirish, iqtisodiy jihatdan asoslangan raqobat muhitini ta’minlash va budjet mablag‘laridan samarali foydalanishga qaratilgan yettita amaliy mexanizm taklif etiladi. Ushbu mexanizmlar yuqori xavfli xaridlarni aniqlash, boshlang‘ich narxni asoslash, narx zanjiri deklaratsiyasini joriy etish, ishtirokchilarning huquqiy maqomini tekshirish, narx indikatorlaridan foydalanish, ma’lumotlar integratsiyasini ta’minlash hamda shartnomalar ijrosini monitoring qilishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, boshlang‘ich narx, narx manipulyatsiyasi, vositachilik zanjiri, affillanganlik, demping, raqobat, elektron hisobvaraq-faktura, xavf indikatorlari, budjet samaradorligi.

Аннотация. Анализируются ценовые риски в сфере государственных закупок, связанные с формированием начальной цены, посредническими цепочками, аффилированностью участников и исполнением контрактов. Проводится сравнительный анализ действующей нормативно-правовой базы Узбекистана и подходов Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), Всемирного банка, Европейского союза и США к регулированию государственных закупок. Предлагаются семь практических механизмов, направленных на повышение прозрачности ценообразования, обеспечение добросовестной конкуренции и эффективности использования бюджетных средств. Данные механизмы включают выявление закупок с высоким уровнем риска, обоснование начальной цены, внедрение декларирования ценовой цепочки, проверку правового статуса участников, применение ценовых индикаторов, интеграцию данных и мониторинг исполнения контрактов.

Ключевые слова: государственные закупки, начальная цена, ценовые манипуляции, посредническая цепочка, аффилированность, демпинг, конкуренция, электронный счёт-фактура, индикаторы риска, эффективность бюджетных расходов.

Abstract. Price-related risks in public procurement associated with initial price formation, intermediary supply chains, affiliated bidders, and contract execution are examined. A comparative analysis is conducted of Uzbekistan’s existing legal and regulatory framework and the approaches adopted by the Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), the World Bank, the European Union, and the United States. Seven practical mechanisms are proposed to enhance price transparency, promote fair competition, and improve the efficiency of public expenditure. These mechanisms include identifying high-risk procurement transactions, substantiating initial prices, introducing price-chain declarations, verifying bidders’ legal status, applying price-risk indicators, integrating relevant data systems, and monitoring contract performance.

Keywords: public procurement, initial price, price manipulation, intermediary supply chains, bidder affiliation, dumping, competition, electronic invoices, risk indicators, budget efficiency.

KIRISH

Davlat xaridlari davlat moliyasini boshqarishning yirik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning narxi, sifati va ijro natijalari budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini belgilaydi. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda davlat xaridlari xarajatlari a’zo mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining o‘rtacha 12,7 foizini, jami davlat xarajatlarining 29,9 foizini tashkil etgan [1]. O‘zbekistonda 2024-yil davomida 248,6 trln so‘mlik qariyb 1,8 mln ta davlat xaridi shartnomasi tuzilgan; vazirlik hisob-kitoblariga ko‘ra, raqobatli xaridlar natijasida 13,9 trln so‘m iqtisod qilingan [2]. Bu ko‘rsatkichlar xarid narxini to‘g‘ri aniqlash fiskal jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli[1] Qonun asoslanganlik, moliyaviy mablag‘lardan oqilona, tejamkor va samarali foydalanish, ochiqlik, shaffoflik, raqobat va xolislik prinsiplarini mustahkamlaydi [3]. Shu bilan birga, elektron savdoda bir nechta taklifning mavjudligi narxlarning mustaqil shakllanganini yoki xaridning real bozor qiymatiga mosligini baholashda qo‘shimcha tahlil zarurligini ko‘rsatadi. Raqobat qo‘mitasi 2025-yilda boshlang‘ich qiymati 18,8 trln so‘m bo‘lgan 23 mingdan ortiq xaridni o‘rganib, 16 135 ta savdoda 28 304 ta raqobatga zid harakatni qayd etgan [4]. Ular orasida savdo tartibini buzish, ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, imtiyozli sharoitlar yaratish va affillanganlik holatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli[2] Farmon bilan 2030-yilgacha davlat xaridlarida iqtisod qilingan mablag‘larni 25 trln so‘mga yetkazish hamda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini sun’iy intellekt asosida hisoblash mexanizmini joriy etish belgilangan [5]. Shu bilan birga, narxning ishonchli asoslanishi hisoblash modelida foydalaniladigan ma’lumotlar, tovarning taqqoslanadigan xususiyatlari va shartnoma ijrosini kuzatish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq.

Tadqiqotning maqsadi – xaridni rejalashtirishdan shartnoma ijrosigacha bo‘lgan bosqichlarda narx manipulyatsiyasi xavfini aniqlash va kamaytirishning amaliy mexanizmlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajriba: tekshiruv dalillari va qaror qabul qilish. AQSH Federal Acquisition Regulation (FAR) hujjatining 15.404-1-bandida taklif etilgan narxning adolatli va oqilona ekanini aniqlash uchun raqobatli narxlar, avvalgi shartnomalar, bozor kuzatuvlari va zarur bo‘lganda xarajatlar tarkibini solishtirish vositalari nazarda tutiladi [10]. Bu birgina tijorat taklifiga tayanmasdan, ko‘p manbali asoslash tizimini shakllantirish uchun amaliy namuna hisoblanadi.

Jahon bankining 2025-yil sentabrdagi xarid qoidalarida g‘ayritabiiy past taklif shartnoma ijrosining real imkoniyatini qo‘shimcha baholash zaruratini yuzaga keltiradigan narx sifatida qaraladi. Bunday holatda batafsil yozma izoh va narx tahlili so‘raladi; izoh yetarli bo‘lmasa, tegishli tartib asosida taklif rad etiladi [7]. Yevropa Ittifoqining 2014/24/EU-sonli direktivasining 69-moddasi ham tushuntirish talab qilishni belgilaydi [8]. SIGMA/OECD past narxni uzoq muddatli xarajatlar va shartnoma ijrosi bilan bog‘liq xavflar nuqtayi nazaridan baholaydi [9].

Xorijiy yondashuvlarning umumiy jihati – nazoratning narx chegarasini baholash bilan cheklanmasdan, dalillar to‘plamini o‘rganish va shartnoma ijrosini kuzatish jarayonlarida ham davom ettirilishidir. Ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishda amaldagi PF-259-sonli Farmon va davlat xaridlari qonunchiligini takrorlaydigan yangi tartiblarni ishlab chiqishdan ko‘ra, narxni asoslash metodikasi, xavf signallarini qayta ishlash va ma’lumotlar almashinuvi mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim.

OECDning raqobatga zid kelishuvlarni aniqlashga oid tavsiyalari xarid jarayonining o‘zi ham raqobatni rag‘batlantiradigan tarzda tashkil etilishini ko‘zda tutadi [6]. Bir-biriga juda o‘xshash talablar bilan cheklangan savdolar, muntazam takrorlanuvchi g‘oliblar va keskin farqlanadigan narx takliflarini tahlil qilish qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan tendensiyalarni aniqlash imkonini berishi mumkin. Biroq bunday belgilar tovar bozorining kichikligi yoki hududiy logistika xususiyatlari bilan ham izohlanishi mumkin. Xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq etishda aynan shu ikki bosqichli yondashuvni – avval avtomatik saralash, keyin hujjatli tekshiruvni – saqlash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, institutsional va mantiqiy tahlil, rasmiy statistik ma’lumotlarni o‘rganish hamda

1 O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonun: https://lex.uz/docs/-5382974

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmon: https://lex.uz/uz/docs/-7952218

xavf belgilarini tizimlashtirish usullari qo‘llanildi. Maqolada taqdim etilgan sonli misollar tushuntirish xarakteriga ega bo‘lib, ular real xaridlarning empirik natijalari sifatida talqin qilinmaydi.

Mazkur tadqiqotda “narx manipulyatsiyasi xavfi” tushunchasi narxning bozor qiymatidan chetlanishi yoki xarid jarayonida muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar mavjud bo‘lishi mumkinligini anglatuvchi tahliliy signal sifatida qo‘llanadi. Aniqlangan tafovutning o‘zi noqonuniy kelishuv, asossiz boyish yoki moliyaviy zarar mavjudligini tasdiqlovchi dalil hisoblanmaydi. Bunday xulosa chiqarish uchun narxlarning taqqoslanadigan sharoitlarda shakllanganligi, real xarajatlar va ishtirokchilarning majburiyatlari, shuningdek, tegishli tekshiruv materiallari baholanishi kerak. Bunday yondashuv halol yetkazib beruvchilar uchun teng raqobat sharoitlarini saqlab qolishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Narx manipulyatsiyasi xavfi faqat g‘olib taklifining yuqori yoki past narxda bo‘lishi bilan cheklanmaydi. Xarid narxini shakllantiruvchi ma’lumotlar, talablarning raqobatga ta’siri, savdo ishtirokchilarining mustaqilligi hamda shartnoma ijrosi bosqichidagi o‘zgarishlar birgalikda baholanishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, oltita asosiy xavf shaklini ajratish mumkin (1-jadval).

1-jadval
Davlat xaridlarida narx manipulyatsiyasining asosiy shakllari[3]

Xavf shakli	**Xarid bosqichi**	**Iqtisodiy xavf va tekshiruv belgisi**
Boshlang‘ich narxni yuqori belgilash	Rejalashtirish	Bozor narxidan yuqori boshlang‘ich qiymat shakllanadi; keyingi pasayish iqtisod ko‘rsatkichining real holatga muvofiqligini qo‘shimcha baholash zaruratini yuzaga keltiradi.
Iqtisodiy jihatdan asoslanmagan vositachilik ustamasi	Ta’minot zanjiri	Qayta sotishdagi ustamaning logistika, kafolat yoki servis xarajatlari bilan asoslanganligi qo‘shimcha tekshiriladi.
O‘zaro bog‘liq ishtirokchilar	Savdo jarayoni	Yagona benefitsiar, umumiy rahbar yoki muvofiqlashtirilgan takliflar mavjudligi mustaqil raqobat darajasini qo‘shimcha baholash zaruratini yuzaga keltiradi.
G‘ayritabiiy past narx	Takliflarni baholash	Ijro xarajatlarining qoplanishi, sifat va muddat talablariga rioya etilishi qo‘shimcha baholanishi zarur.
Tor texnik talablar	Hujjatlarni tayyorlash	Brend yoki texnik parametrlar bo‘yicha talablarning iqtisodiy va texnik asoslanganligi hamda muqobil ishtirokchilarga ta’siri baholanadi.
Ijro jarayonida narx afzalligining kamayishi	Shartnoma ijrosi	Qo‘shimcha kelishuvlar, tovarni almashtirish yoki sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi dastlabki iqtisod natijalariga ta’sir qilishi mumkin.

Vositachining mavjudligi o‘z-o‘zidan huquqbuzarlikni anglatmaydi: tashish, saqlash, o‘rnatish, rasmiy kafolat va servis xarajatlari yakuniy narxning iqtisodiy jihatdan asoslangan holda oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday xizmatlar ko‘rsatilmagan yoki ularning qiymati hujjatlar bilan yetarlicha asoslanmagan holatlarda qo‘shimcha baholash zarurati yuzaga keladi. Shuningdek, past narx ham samarali yetkazib berish modelining natijasi bo‘lishi mumkin. Demak, xavf signali yakuniy xulosa o‘rnini bosmasligi, balki qo‘shimcha tekshiruvni boshlash uchun asos bo‘lishi lozim.

Milliy amaliyotdagi muammolar va amaldagi tartibning imkoniyatlari

Boshlang‘ich narx va “iqtisod” ko‘rsatkichining ishonchliligi

Boshlang‘ich narx davlat xaridlarida keyingi savdo natijalarini baholash uchun asos bo‘ladi. Agar u real bozor qiymatiga nisbatan yuqori belgilansa, keyingi pasayish natijasida qayd etilgan iqtisod ko‘rsatkichining iqtisodiy asoslanganligini qo‘shimcha baholash zarurati yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tovarning bozor qiymati 100 birlik bo‘lgan holda boshlang‘ich narx 150 birlik qilib belgilansa va shartnoma 130 birlikka tuzilsa,

3 Manba: muallif ishlanmasi

rasman 20 birlik iqtisod qayd etiladi. Ammo iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, tovar bozor qiymatidan 30 birlik yuqori narxda xarid qilingan bo‘ladi.

Boshlang‘ich narxni asoslashda faqat tijorat takliflariga tayanish bilan cheklanmaslik maqsadga muvofiq. Chunki tijorat takliflari xaridga qiziqish bildirgan muayyan yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladi va ayrim hollarda bozordagi haqiqiy narxdan farqlanuvchi, xarid shartlariga moslashtirilgan narxlarni aks ettirishi mumkin. Ayniqsa, importga bog‘liq, yetkazib beruvchilari cheklangan yoki bir nechta vositachi orqali yetkazib beriladigan tovarlarda ushbu xavfni qo‘shimcha baholash muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli boshlang‘ich narxni kamida quyidagi manbalar bilan solishtirish maqsadga muvofiq: oldingi davlat xaridlari narxlari, ochiq bozor narxlari, bojxona qiymati, elektron hisobvaraq-fakturalardagi real oldi-sotdi narxlari, ishlab chiqaruvchi yoki birinchi import qiluvchi narxi, shuningdek, logistika, kafolat, servis va o‘rnatish xarajatlari. AQSH Federal xarid qoidalarida ham taklif narxini bozor narxlari, o‘xshash xaridlar va xarajatlar bilan solishtirish orqali uning adolatli va asoslanganligini baholash yondashuvi belgilangan [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli[4] Farmonda davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modulni ishga tushirish nazarda tutilgan [5]. Bu yo‘nalish boshlang‘ich narxni ma’lumotlar asosida baholash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, modul faqat ochiq internet narxlariga emas, balki davlat xaridlari tarixi, bojxona qiymati, elektron hisobvaraq-fakturalar va birinchi import qiluvchi narxlari bilan integratsiya qilingan holda ishlashi lozim. Bunday integratsiya tizimning bozorda shakllangan narxlarni iqtisodiy jihatdan asoslangan o‘rtacha narx sifatida baholash aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Vositachilik zanjiri, bog‘liqlik va haqiqiy raqobat. Davlat xaridlarida vositachilik zanjiri narx shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tovar ishlab chiqaruvchi yoki birinchi import qiluvchidan davlat buyurtmachisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazilmasdan, bir nechta ichki oldi-sotdi bosqichlaridan o‘tishi mumkin. Har bir bosqichda ustama qo‘shilishi yakuniy xarid narxining oshishiga olib keladi.

Vositachilikning o‘zi har doim salbiy holat hisoblanmaydi. Ayrim tovarlarda logistika, omborda saqlash, o‘rnatish, kafolat, servis va texnik qo‘llab-quvvatlash obyektiv zarurat bo‘lishi mumkin. Vositachi real iqtisodiy funksiyani bajarmagan yoki faqat hujjatlarda tovarni qayta sotuvchi sifatida ishtirok etgan hollarda esa uning ustamasining iqtisodiy asoslanganligini qo‘shimcha baholash zarurati yuzaga keladi. Bunday vaziyatda vositachilik zanjiri narxning iqtisodiy jihatdan maqbulligini baholashda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, import tovarlari, tibbiy jihozlar, laboratoriya uskunalari, axborot texnologiyalari, transport vositalari, maxsus texnika va ehtiyot qismlar bo‘yicha bojxona qiymati, birinchi import qiluvchi narxi, ichki qayta sotish bosqichlari va yakuniy xarid narxi o‘rtasida sezilarli farq yuzaga kelishi mumkin. Agar bu farq logistika, kafolat, servis yoki boshqa qo‘shimcha qiymat bilan asoslanmasa, u narx shakllanishini qo‘shimcha tekshirish zaruratini bildiruvchi xavf indikatori sifatida baholanishi lozim.

Ishtirokchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik ushbu xavfni kuchaytirishi mumkin. Tenderda bir nechta yuridik shaxs qatnashgan taqdirda ham ular yagona benefitsiarga, umumiy ta’sischiga, bir rahbarga, bir manzilga yoki o‘zaro barqaror shartnomaviy munosabatlarga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holatda tenderda bir nechta ishtirokchi mavjud bo‘lsa-da, takliflarning mustaqil shakllanganligini qo‘shimcha baholash zarurati yuzaga kelishi mumkin.

Raqobat qo‘mitasi ma’lumotlarida ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ayrim ishtirokchilarga imtiyozli shart-sharoitlar yaratish, ishtirokchilar o‘rtasida hamda buyurtmachi bilan ishtirokchi o‘rtasida affillanganlik holatlari qayd etilgan [4]. Ushbu ma’lumotlar davlat xaridlarida raqobatning haqiqiyligini baholash va vositachilik zanjirlari bilan bog‘liq xavflarni o‘rganish amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Bunday xavflarni faqat tender hujjatlari orqali aniqlash murakkab bo‘lishi mumkin. Shu sababli ishtirokchilarning haqiqiy mustaqilligini baholash uchun benefitsiar mulkdorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, yuridik shaxslar reyestri, elektron hisobvaraq-fakturalar, bojxona va soliq ma’lumotlari, shuningdek, oldingi shartnomalar ijrosi tarixi birgalikda tahlil qilinishi kerak.

Narxdan tashqari sifat va ijro xavflari. Eng past narx davlat xaridlarida muhim mezon hisoblanadi. U budjet mablag‘larini tejash va narx raqobatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, standart tovarlar va oddiy xizmatlar bo‘yicha bu yondashuv tezkor natija berishi mumkin. Shu bilan birga, texnik jihatdan murakkab tovarlar, qurilish ishlari, tibbiy uskunalar, axborot texnologiyalari, transport vositalari, ehtiyot qismlar va servis talab qiladigan xaridlarda eng past narx har doim ham eng maqbul natijani anglatmasligi mumkin.

G‘ayritabiiy past narx ikki xil holatni ko‘rsatishi mumkin. Birinchi holatda ishtirokchi samarali ta’minot manbasiga, past xarajatli logistikaga yoki ishlab chiqaruvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaga ega bo‘ladi. Bunday holatda past narx iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lishi mumkin. Ikkinchi holatda esa ishtirokchi shartnomani yutish uchun real xarajatlardan past narx taklif qilishi va keyinchalik sifat ko‘rsatkichlari, texnik

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmon: https://lex.uz/uz/docs/-7952218

xususiyatlar yoki qo‘shimcha kelishuvlar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash zaruratiga duch kelishi mumkin.

Shuning uchun past narx avtomatik ravishda rad etilishi ham, avtomatik ravishda qabul qilinishi ham maqsadga muvofiq emas. Jahon banki (World Bank) qoidalarida g‘ayritabiiy past taklif aniqlangan holatda ishtirokchidan yozma tushuntirish talab qilinishi nazarda tutiladi [7]. Yevropa Ittifoqining 2014/24/EU direktivasida ham narx yoki xarajatlar g‘ayritabiiy past ko‘rinsa, buyurtmachi ishtirokchidan tushuntirish talab qilishi belgilangan [8]. SIGMA/OECD yondashuvida esa eng past narx uzoq muddatda har doim ham eng yaxshi natijani ta’minlamasligi, shartnoma ijrosi va sifat bilan bog‘liq xavflarni hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi [9].

Demak, ishtirokchidan taklif narxining tarkibini ochib berish talab qilinishi lozim. Unda tovarning ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi narxi, logistika xarajatlari, soliq va bojxona to‘lovlari, saqlash, o‘rnatish, kafolat, servis, mehnat xarajatlari, foyda marjasi va shartnomani belgilangan muddatda bajarish imkoniyati ko‘rsatilishi kerak. Agar past narx real iqtisodiy afzallik bilan asoslansa, u qabul qilinishi mumkin; agar asoslar yetarli bo‘lmasa, taklif shartnoma ijrosi bilan bog‘liq xavfi yuqori bo‘lgan taklif sifatida baholanishi lozim.

Raqamli imkoniyatlar va ularning ma’lumotlar bilan ta’minlanishi. Davlat xaridlarida narxning haqiqiy manbasini aniqlash uchun xarid platformasidagi ma’lumotlarning o‘zi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Xarid platformasi e’lon, ishtirokchi, taklif, shartnoma va ayrim ijro ma’lumotlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, tovar qanday narxda import qilingani, ichki bozorda qaysi subyektlar orqali qayta sotilgani, ishtirokchilarning o‘zaro bog‘liqligi yoki yetkazib beruvchining real faoliyatini baholash uchun boshqa ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya zarur.

Bojxona ma’lumotlari import tovarining mamlakatga kirish qiymatini va birinchi import qiluvchini aniqlash imkonini beradi. Elektron hisobvaraq-fakturalar tovarning ichki bozordagi qayta sotish zanjirini ko‘rsatadi. Soliq ma’lumotlari ishtirokchining real aylanmasi, faoliyat yo‘nalishi va soliq intizomini baholashga xizmat qiladi. Yuridik shaxslar reyestri va benefitsiar mulkdorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar esa ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumotlar integratsiyasi narx shakllanishi zanjirini izchil kuzatish imkonini beradi. Masalan, tovar bojxonada muayyan qiymatda rasmiylashtirilgan, ichki bozorda bir nechta subyekt orqali qayta sotilgan va davlat xaridida ancha yuqori narxda taklif qilingan bo‘lishi mumkin. Agar xarid tizimi faqat yakuniy taklif narxini aks ettirsa, ushbu farqning qaysi qismi logistika, kafolat yoki servis bilan asoslanganini, qaysi qismi esa qo‘shimcha iqtisodiy baholashni talab qilishini aniqlash murakkablashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli[5] Farmonda nazarda tutilgan sun’iy intellekt asosida o‘rtacha bozor narxini hisoblash moduli ushbu masalani hal qilishda muhim vosita bo‘lishi mumkin [5]. Shu bilan birga, mazkur modulning tahliliy samaradorligini oshirish uchun uni xarid platformasidan tashqari soliq, bojxona, elektron hisobvaraq-faktura, yuridik shaxslar va shartnoma ijrosi ma’lumotlari bilan bog‘lash zarur. Bunday integratsiya tizimga nafaqat narx ko‘rsatkichlarini, balki ularning shakllanish manbalarini ham tahlil qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy-tahliliy tadqiqot natijalari davlat xaridlari tizimida narxlarning iqtisodiy asoslanganligini ta’minlash, raqobat muhitini rivojlantirish va budjet mablag‘laridan samarali foydalanish masalalari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Davlat xaridlarida narx bilan bog‘liq xavflar faqat tender takliflarini baholash bosqichida emas, balki boshlang‘ich narxni shakllantirish, yetkazib beruvchilarni tanlash, vositachilik zanjirlarini tashkil etish, shartnoma shartlarini belgilash va ularning ijrosini nazorat qilish jarayonlarida ham yuzaga kelishi mumkin. Shu bois narx manipulyatsiyasi xavfini kamaytirish alohida nazorat choralarini qo‘llash bilan cheklanmasdan, xarid jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, iqtisodiy asoslangan va xavfga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot doirasida davlat xaridlarida narx shaffofligini oshirishning huquqiy, institutsional va raqamli mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligi asoslandi. Huquqiy mexanizmlar narxning iqtisodiy asoslanganligini baholash mezonlarini aniqlashtirishga, institutsional mexanizmlar xarid ishtirokchilari va vakolatli organlarning mas’uliyatini belgilashga, raqamli mexanizmlar esa ma’lumotlarni integratsiya qilish va xavf belgilarini o‘z vaqtida aniqlashga xizmat qilishi mumkin. Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro muvofiqlashtirilishi davlat xaridlarida nazorat samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat sharoitlarini saqlash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, narx manipulyatsiyasi xavfini kamaytirishda xarid qiymatini yagona baholash

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmon: https://lex.uz/uz/docs/-7952218

mezoni sifatida qo‘llash yetarli emas. Xarid predmetining texnik murakkabligi, importga bog‘liqligi, yetkazib beruvchilar konsentratsiyasi, narx tafovutlari, vositachilik bosqichlari va shartnoma ijrosi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, yuqori xavfli xaridlarni alohida tasniflash va ularga nisbatan chuqurlashtirilgan tahlil mexanizmlarini qo‘llash nazorat resurslarini samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Bunda xavf indikatorlari xarid ishtirokchilarini avtomatik cheklash vositasi sifatida emas, balki qo‘shimcha iqtisodiy asoslash va tekshiruv zaruratini aniqlovchi mexanizm sifatida qo‘llanilishi lozim.

Davlat xaridlarida boshlang‘ich narxning iqtisodiy asoslanganligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun yuqori xavfli va yirik xaridlar bo‘yicha tovarning texnik xususiyatlari, bozor narxlari, import qiymati, logistika, soliq, kafolat va servis xarajatlarini qamrab oluvchi elektron asoslash xulosasini shakllantirish taklif etiladi. Mazkur yondashuv narxning shakllanish omillarini tizimli baholash, taqqoslanadigan ma’lumotlardan foydalanish va qabul qilingan qarorlarning iqtisodiy asoslarini hujjatlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, narx zanjiri deklaratsiyasini joriy etish orqali ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi, distribyutor va yakuniy yetkazib beruvchi o‘rtasidagi narx o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda vositachilik faoliyatining iqtisodiy funksiyalarini aniqlash mumkin.

Tadqiqotda davlat xaridlari platformasini soliq, bojxona, elektron hisobvaraq-faktura, yuridik shaxslar reyestri va shartnoma ijrosi ma’lumotlari bilan integratsiya qilishning amaliy ahamiyati alohida ko‘rsatildi. Bunday integratsiya narx shakllanishi, tovar harakati, ishtirokchilar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va shartnoma majburiyatlarining bajarilishini kompleks tahlil qilish uchun axborot asosini yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son[6] Farmonida nazarda tutilgan sun’iy intellekt asosida o‘rtacha bozor narxini hisoblash modulini rasmiy ma’lumotlar bazalari bilan uyg‘unlashtirish narx indikatorlarining aniqligi va tahliliy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, narx nazoratini faqat xarid g‘olibini aniqlash bosqichi bilan cheklamasdan, shartnoma ijrosi davomida ham izchil amalga oshirish zarurligi aniqlandi. Qo‘shimcha kelishuvlar, mahsulot sifati, yetkazib berish muddatlari, kafolat va servis majburiyatlari hamda yakuniy to‘lovlarni monitoring qilish tender bosqichida erishilgan iqtisodiy natijalarning amalda saqlanishini baholash imkonini beradi. Shu jihatdan xaridning dastlabki qiymati bilan uning yakuniy ijro qiymatini o‘zaro solishtirish, narx o‘zgarishlarining sabablarini hujjatlashtirish va aniqlangan xavf belgilarini keyingi tahlillarda hisobga olish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Davlat xaridlarini xavf darajasi bo‘yicha tasniflash tizimini takomillashtirish. Xarid predmeti, narx tafovuti, import ulushi, yetkazib beruvchilar konsentratsiyasi va shartnoma ijrosi ko‘rsatkichlari asosida yuqori, o‘rta va past xavfli xaridlar guruhlarini shakllantirish hamda nazorat mexanizmlarini ushbu tasnifga muvofiq tashkil etish.

Boshlang‘ich narxning iqtisodiy asoslanganligini baholash mexanizmini rivojlantirish. Yirik va yuqori xavfli xaridlar uchun bozor narxlari, texnik spetsifikatsiyalar, import qiymati va qo‘shimcha xarajatlarni aks ettiruvchi elektron asoslash xulosasini joriy etish hamda undan xarid qarorlarini hujjatlashtirishda foydalanish.

Narx zanjiri shaffofligini ta’minlash. Yuqori xavfli tovarlar bo‘yicha ishlab chiqaruvchidan yakuniy yetkazib beruvchigacha bo‘lgan narx shakllanish bosqichlarini aks ettiruvchi deklaratsiya mexanizmini ishlab chiqish, vositachilik ustamalarining iqtisodiy asoslanganligini baholash va raqobat tamoyillarini saqlash.

Xarid ishtirokchilarining iqtisodiy va texnik salohiyatini baholashni takomillashtirish. Yetkazib beruvchilarning ishlab chiqaruvchi, distribyutor, import qiluvchi yoki vositachi sifatidagi maqomini, shuningdek, kafolat, servis va shartnoma ijrosi bo‘yicha imkoniyatlarini hisobga oluvchi shaffof baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Narx tafovutlarini aniqlashning raqamli indikatorlarini kengaytirish. G‘ayritabiiy past va yuqori narxlarni aniqlashda avvalgi xaridlar, bozor narxlari, import qiymati va shartnoma ijrosi ko‘rsatkichlaridan foydalanish, xavf signallari bo‘yicha qo‘shimcha izoh va iqtisodiy asoslash tartibini belgilash.

Davlat xaridlari bo‘yicha axborot tizimlari integratsiyasini rivojlantirish. Xarid, soliq, bojxona, elektron hisobvaraq-faktura va boshqa tegishli ma’lumotlar bazalari o‘rtasida qonunchilik talablariga muvofiq axborot almashinuvini kengaytirish, narx shakllanishi va shartnoma ijrosini kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish.

Shartnoma ijrosi monitoringini kuchaytirish. Qo‘shimcha kelishuvlar, yetkazib berilgan mahsulotning texnik va sifat ko‘rsatkichlari, kafolat majburiyatlari hamda yakuniy to‘lovlarni muntazam kuzatish orqali xaridning rejalashtirilgan va amalda erishilgan iqtisodiy natijalarini baholash.

Sun’iy intellektga asoslangan tahliliy vositalardan foydalanishni kengaytirish. Narx tafovutlari, takroriy xaridlar, ishtirokchilar o‘rtasidagi bog‘liqliklar va shartnoma ijrosi ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish orqali xavflarni erta aniqlash, bunda yakuniy qarorlarning shaffofligi va inson nazoratini ta’minlash.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmon: https://lex.uz/uz/docs/-7952218

Umuman olganda, davlat xaridlarida narx manipulyatsiyasi xavfini kamaytirishning samarali yo‘li raqobatni cheklash yoki vositachilik faoliyatini umumiy tartibda qisqartirish emas, balki narx shakllanishining iqtisodiy asoslarini ochib berish, xavflarni tabaqalashtirilgan mezonlar asosida baholash va shartnoma ijrosining shaffofligini ta’minlashdan iborat. Taklif etilgan huquqiy, institutsional va raqamli mexanizmlarning o‘zaro uyg‘un holda joriy etilishi davlat xaridlarida iqtisodiy asoslangan qarorlar qabul qilish, raqobat muhitini mustahkamlash, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va xarid jarayonlarining ochiqligini ta’minlash uchun muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. Government at a Glance 2025. Section 11.1: Size of Public Procurement [Elektron resurs]. – Paris : OECD Publishing, 2025. – DOI: https://doi.org/10.1787/0efd0bcd-en.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2024-yilda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to‘g‘risida [Elektron resurs]. – 2025-yil 7-fevral. – URL: https://gov.uz/oz/imv/news/view/35827.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonuni (amaldagi tahrir) [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/5382974.
4. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi. Davlat xaridlarida 28 300 dan ortiq raqobatga zid harakatlar aniqlangan [Elektron resurs]. – 2026-yil 10-mart. – URL: https://raqobat.gov.uz/davlat-xaridlarida-28-300-dan-ortiq-raqobatga-zid-harakatlar-aniqlangan/.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son «Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7952218.
6. OECD. OECD Guidelines for Fighting Bid Rigging in Public Procurement: 2025 Update [Elektron resurs]. – Paris : OECD Publishing, 2025. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/oecd-guidelines-for-fighting-bid-rigging-in-public-procurement-2025-update_cbe05a56-en.html.
7. World Bank. Procurement Regulations for IPF Borrowers [Elektron resurs]. – 7th ed. – Washington, DC : World Bank, September 2025. – Section V, paras. 5.65–5.67. – URL: https://thedocs.worldbank.org/en/doc/c84273d1b230aeb2b0b8134de5dc8cd7-0290012025/original/Procurement-Regulations-7th-Edition-Sep-2025.pdf.
8. European Parliament and Council. Directive 2014/24/EU on Public Procurement of 26 February 2014. Article 69: Abnormally Low Tenders [Elektron resurs]. – 2014. – URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2014/24/oj/eng.
9. OECD. Abnormally Low Tenders [Elektron resurs] // SIGMA Public Procurement Briefs. – 2016. – No. 35. – Paris : OECD Publishing. – DOI: https://doi.org/10.1787/f0968615-en.
10. Federal Acquisition Regulation (USA). FAR 15.404-1: Proposal Analysis Techniques (amaldagi tahrir) [Elektron resurs]. – URL: https://www.acquisition.gov/far/15.404-1.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100